

## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 263-266 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY AUDIT JARAYONINI TASHKIL ETISH BOSQICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH



**Bo'ronov G'anixon Shamsuddinovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada budjet tashkilotlarida moliyaviy audit jarayonini tashkil etish bosqichlarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqillik, xolislik, ichki audit, professional etika, budjet mablag'lari.

#### Kirish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning tub negizida insonlarni rozi qilish masalasi yotibdi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 40-maqsadida "Maktabgacha ta'lim tizimida budjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash"<sup>1</sup> vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifani har tomonlama sifatli bajarish uchun mazkur sohalarni moliyaviy auditdan o'tkazish talab etiladi. Hozirgi kunda davlat budjeti mablag'larini ajratilishi va ularning sarflanishi borasida keng jamoatchilikda juda ko'plab muhokamalarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli o'tkazilayotgan moliyaviy auditdan asosiy maqsad mazkur muhokamalarda shaffof va xolisona fikrni shakllantirishga xizmat qilish hisoblanadi. Bu esa ajratilayotgan mablag'larni to'g'ri sarflanishiga va u haqida keng jamoatchilik vakillariga ishonchli ma'lumotlarni ta'minlash maqsadida moliyaviy auditni samarali hamda xolisona tashkil etish, auditdan o'tkazish natijasida shakllantirilayotgan auditorlik fikrlarida professional mulohazadan kelib chiqqan holda mijoz manfaatlariga mos ravishda muhimlik, risk darajalarni aniqlash bo'yicha muammolarni tadqiq etishga yo'naltirilgan ilmiy ishlarning amalga oshirilishini dolzarbligini belgilaydi.

#### Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy nazoratni tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat va jamoat organlari tizimi sifatida belgilaydi, ularning faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash, iqtisodiy va moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash va davlat budjetiga daromad olishning o'z vaqtida va to'liqligi. Nazorat, o'z navbatida, qonunlarni ustivorligini ta'minlash maqsadida, doimiy ravishda amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazoratni nazorat qilish orqali talqin qilishda nazorat maqsadi buziladi. (*Shohin va boshqalar 1997*)

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni. 2022-yil 28-yanvar. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Moliyaviy nazoratni faqat qonuniylikni belgilash jarayoni sifatida emas, balki boshqaruv ob'ektining samaradorligi va natijadorligini baholash jarayoni sifatida ham ko'rishadi. (Voronin 2005)

V.Sh.Nuritdinov va M.A.Sharapovalar moliyaviy nazorat to'g'risida quyidagicha ya'ni "Moliyaviy nazorat-bu moliyaviy tekshirish va u bilan bog'liq bo'lgan masalalar harakatini va muomilasini majmui bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlari faoliyatini boshqarishni o'ziga xos usullari, shakllar yordamida tashkil etish. (Nuritdinov va Sharapova 2019)

Moliyaviy audit tushunchasi moliyaviy nazorat tushunchasiga yaqin bo'lsada biroq ularning maqsadi, vazifasi va qo'llanish sohalari o'rtasida farqli jihatlari mavjud.

Moliyaviy auditning maqsadi mo'ljallangan foydalanuvchilarning moliyaviy hisobotga bo'lgan ishonch darajasini oshirishdan iborat. Bunga auditorning moliyaviy hisobot barcha muhim jihatlari bo'yicha amaldagi moliyaviy hisobot tizimiga muvofiq tuzilganmi yoki moliyaviy hisobotlar adolatli taqdimotga muvofiq tuzilganmi degan fikrni bildirishi orqali erishiladi (ISSAI 200)

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda induksiya, deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, guruhlash, eksperiment, adaptiv usullar, integratsion yondashuvlar, aktivlar qadrsizlanish hisobi va usullarini takomillashtirish masalalari bo'yicha xalqaro tajribalar tahlili va aprotatsiyasidan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi**

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan davlat tashkilotlarida moliyaviy audit sohasini tartibga solish bo'yicha tartib-taomillar ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur tartib taomillarga muvofiq audit o'tkazilayotgan tashkilotni va muhitini tushunish yuzasidan quyidagi fikrlar keltirib o'tilgan:

Hisob palatasining xodimi audit o'tkazilayotgan tashkilotni va uning muhitini, jumladan auditga aloqador bo'lgan ichki nazorat tartib-taomillari to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Tashkilotning turli jihatlari va uning muhitini tushunish auditni samarali rejalashtirish va o'tkazishga imkon beradi. Tushunish quyidagilarni nazarda tutadi:


- tegishli muhitni, normativ hujjatlar va boshqa tashqi omillarni, shu jumladan qo'llaniladigan moliyaviy hisobot tizimini;
- tashkilotning xususiyatini, shu jumladan faoliyat rejimini, boshqaruv tuzilmasi, moliyalashtirish tartibi, hisob siyosatini qo'llanishini;
- tashkilotning moliyaviy natijalarini ko'rib chiqishni;
- yuqori organlarning, yangi dasturlar yoki budjet cheklovlari kabi, tashkilotga doir qabul qilingan qarorlarini;
- tashkilot faoliyatini tartibga soladigan muayyan qonunlar va normativ hujjatlarni hamda ularga rioya qilmaslikning potensial oqibatlarini;
- davlat siyosati doirasida bo'layotgan, shu sababli, xatarlarni baholash ahamiyatga ega bo'lgan dasturiy maqsadlar va strategiyalarni;
- tashkilotning huquqiy tuzilmasiga ta'sir ko'rsatadigan boshqaruv tuzilmasi haqida tushunchaga ega bo'lish kerak.

Nazorat muhiti to'g'risida tassavur hosil qilish uchun audit o'tkazilayotgan tashkilot ichidagi muloqat, odob-axloq qadriyatlari targ'ib qilinishini, malaka borasidagi talablari, yuqori boshqaruv organlaridagi mas'ul shaxslarning ishtirokini, rahbariyatning g'oyasi va ish uslubini, tashkiliy tuzilmasini, ichki audit mavjudligi va uning faoliyat darajasini, vakolat va javobgarliklarni taqsimlanishini, shuningdek, inson resurslari borasidagi siyosati va amaliyotini ko'rib chiqilishi kerak.

Audit subyekting moliyaviy hisobotga taalluqli bo'lgan biznes-xatarlarini aniqlash bo'yicha tartib-taomili borligini va bunday xatarlarning, ularning sodir bo'lish ehtimolini baholash orqali ahamiyatini baholashlarini ko'rib chiqish kerak. Agar, ana shunday tartib-taomil o'rnatilgan bo'lsa, ushbu tartib-taomil haqida va uning natijalari to'g'risida tushuncha olish kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilishimiz mumkin bo'ladiki moliyaviy auditni tashkil etish budjet tashkilotlarida eng muhim bosqich hisoblanadi. Byudet tashkilotlarida moliyaviy auditni tashkil etish tijorat tashkilotlarida moliyaviy hisobotni tashkil etish bilan bevosita o'xshaydi.

Quyida keltirilgan rasmda moliyaviy auditni tashkil etishda amalga oshirilishi kerak bo'lgan tartib-taomillar keltirib o'tilgan(1-rasm)




**1-rasm. moliyaviy auditni tashkil etishda amalga oshirilishi kerak bo'lgan tartib-taomillar ketma-ketligi<sup>2</sup>**

Auditorlar budjet tashkilotlarini moliyaviy audit o'tkazishda audit o'tkazilayotgan tashkilot bilan dastlabki tanishuv to'g'ri amalga oshirishi lozim bo'ladi. Chunki auditorlar e'tiboridan chetda qoladigan har bitta masala moliyaviy auditda rejalashtirish va o'tkazish jarayonida hisobga olinmasligi va natijada o'tkazilgan moliyaviy audit natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'ladi.

Quyida keltirib o'tilgan rasmda mijoz tashkilot bilan dastlabki tanishuvda moliyaviy audit jarayonida auditorlar tomonidan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim jihatlar keltirib o'tilgan (2-rasm).

<sup>2</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



## 2-rasm. Mijoz tashkilot bilan dastlabki tanishuvda e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalar<sup>3</sup>

### Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilishimiz mumkin bo'ladiki, auditorlar budjet tashkilotlarini moliyaviy audit o'tkazishda audit o'tkazilayotgan tashkilot bilan dastlabki tanishuv to'g'ri amalga oshirishi lozim bo'ladi. Chunki auditorlar e'tiboridan chetda qoladigan har bitta masala moliyaviy auditda rejalashtirish va o'tkazish jarayonida hisobga olinmasligi va natijada o'tkazilgan moliyaviy audit natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'ladi.

Shu, sababli audit o'tkazilayotgan tashkilot faoliyati bilan dastlabki tanishuvni to'g'ri amalga oshirilishi auditning keyingi bosqichlarini to'g'ri tashkil etish yordam beradi.

### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustida "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" gi 416-sonli qarori
2. "Moliyaviy audit" nomli ISSAI 200
3. Шохин С.О., Воронина Л. Н. Бюджетно-финансовый контроль и аудит. Теория и практика применения в России: научно-методическое пособие. М.: Финансы и статистика, 1997
4. Воронин Ю. М. Государственный финансовый контроль. М.: Финансовый контроль, 2005
5. V.Sh.Nuritdinova, M.A.Sharapova "Moliyaviy nazorat" darslik Toshkent. Iqtisod-moliya 2019
6. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)



<sup>3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan